

EKOLOGIK MUAMMOLAR: OROL DENGIZINING QURISHI

Mushtariy Toshpo'latova¹

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi

KEYWORDS

dengiz, qurish, qum, teri
kasalliklari, ifloslanish.

ABSTRACT

O'rta Osiyo hududida joylashgan Orol dengizi bugungi kunda suv manbayidan uzilib qolgan. Buning natijasida dengiz 1990-yillardagi ko'rinishini mutlaqo yo'qotgan. Dengiz bo'yida yashovchi aholining katta qismi baliqchilik bilan shug'illangan va uning atrofida ko'plab konserva zavodlari ham mavjud bo'lgan. Bugungi kunga kelib esa ulardan faqatgina qoldiqlar qolgan xolos. Undan tashqari oldin suv qoplagan maydon hozirda butun Osiyoni tuzli shamollar bilan siylamoqda. Bu esa havoning iflaslanishiga, aholi orasida turli xil virusli va teri kasalliklarini keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.14884617**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish: Yaqin o'tmishga qaraydigan bo'lsak Orol dengizi juda katta hududni o'z ichiga olganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. XX asrning 50 yillarida esa dengiz Qoroqalpog'iston aholisining ko'p qismini ish bilan ta'minlagan. Ya'ni aholi baliqchilik bilan shug'ullangan, dengiz atrofida konserva zavodlari ham mavjud bo'lib, aholi ish bilan ta'minlangan. Ammo XXI asrga kelib hammasi o'zgardi. Dengiz sathi 68 ming kvadrat kilometrda 14 ming kvadrat kilometrga tushib qoldi. Bugungi kunda dengizning qurigan qismidagi ming tonnadan ziyod tuz va zararli moddalar bo'lganligi sababli shamol bilan qo'shilib atmosferaga ko'tarilmoqda. Bu esa Orol nafaqat Osiyo xalqi uchun balki Yevropa hududidagi insonlarning ham solamatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atmosfera zararlangandan so'ng esa bulutlarga aralashgan moddalar yerga suv tomchilar bilan tushib yashil hududlarda ham yashash ko'rsatkichini tushirib yuborishi turgan gap. Olimlar bu mavzuda ko'plab ishlarni amalga oshirishga harakat qilishmoqda. Bu kabi sa'y harakatlardan biri bu Prezidentimizni Orolning qurigan yerlariga saksovul kabi cho'l o'simliklarini ekish, zararli modda va tuzlarni yerning o'zida saqlab qolishga qaratilgan edi. Bu kabi fikrlar va tadqiqotlar judayam ko'p amalga oshirilgan. Afsuski, hozirda Orolning faqatgina Qozog'iston hududidagi kichik qismi

¹ Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining 10-sinf o'quvchisi

Sirdaryoning kam miqdordagi suvining quyilishi sababli yashab kelmoqda. Bu juda achinarli holat. Ammo u haqida o'qib turib fikr bildirmaslik, dengizning yo'q bo'lib ketishi bilan birgalikda yashil hududlarni nafaqat Markaziy Osiyoda balki Amerikada ham yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Zero shamol faqat Osiyoda esmaydi.

Asosiy qism: Orol dengizi Osiyoning asosiy suv manbalaridan bo'lgan Amudaryo va Sirdaryodan to'yingan. Ular yiliga 60 kub kilometr suv bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich hozirgi kunda 5 kub kilometrni tashkil etadi. Bu ikki raqam o'rtasida juda katta tafovut bor. Suv ta'minotidagi bu o'zgarishga sabab qilib daryolarni suv bilan ta'minlaydigan Hindikush, Pomir, Tyan-Shan tog'larining qorli cho'qqilari yemirilishi olinmoqdan. Ular Markaziy Osiyo hududa Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston hududlaridan o'tib Orol dengiziga quyilgan. Tabiiyki, bu kabi katta hududni bosib o'tishda ham aholi daryolardan kanal va ariqlar qazib olishgan bu esa taqsimotida katta kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan. Ayniqsa SSSR davrida suvga katta ehtiyoj bildiruvchi paxta va g'alla mahsulotlari yetishtirilgan. O'zbekistondagi katta cho'llarning o'zlashtirishi ham daryo o'zanlarini qisqarishiga olib kelgan. Natijada, Orolga quyiladigan suv miqdori keskin kamayadi. Bu esa hozirgi global muammoning kelib chiqishiga zamin yaratadi.

Suv ob-havoning mo'tadilligiga ham javobgar hisoblanadi. Undan chiqayotgan namlik mo'tadillikni saqlab turadi. Ammo dengizning qurishi o'sha hududda yashaydigan aholiga ko'plab ziyon yetkazadi. Biri ishlaridan ayrilgani bo'lsa, yana biri yashayotgan hududlarida iqlimning keskin o'zgarishi. Ya'ni yoz faslida juda issiq bo'lishi, qishda esa buning mutlaqo aksi hisoblanadi. Bu nafaqat insonlarga balki chorvadorlarning mol-qo'ylariga, dehqonlarning yetishtirayotgan mahsulotlariga ham juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dengiz quriyapti, ob-havoda o'zgarishlar katta bu muammolarning yonida yana birini kiritishimiz mumkin. Bu esa insonlarni zararlanishi. O'ylab qaraydigan bo'lsak har bir mavzuda insonlar foydasida salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni Orol hududidan ko'tarilgan zararli modda va tuzli shamollar turli xil viruslihamda teri kasalliklarini keltirib chiqarishda sabab bo'lmoqda. Bu esa aholi salomatligida katta xavflardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi Mo'ynoq, Ellikqal'a tumanlari, Qozog'iston Respublikasining Aral hamda Qizilo'rda viloyatlarida istiqomat qiluvchilar uchun katta fojea deyishimiz mumkin. Sog'liq inson uchun eng muhim narsa hisoblanadi. Sog'liqni asrash uchun esa har tomonlama harakat qilish joiz.

Xulosa: Orol mavzusi bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Olimlar dengizning qurishiga ko'plab sabablar keltirishadi. Ulardan ba'zilar suv resurslaridan noto'g'ri foydalanishni keltirishsa, ba'zilar iqlimiy o'zgarishni olishmoqda. Ya'ni hududda oxirgi 100 yil ichida yog'ingarchilikning kamayishini sabab qilishmoqda. Bu kabi fikrlarni oxiri yo'q. Ammo Orolni tiklash bo'yicha Qozog'iston hududidagi Shimoliy Orolni asrash to'g'risidagi Philip Micklin va UNESCO ekspertlarining "Kokaral to'g'oni" loyihasini muvaffaqiyatli deb baholandi. Bu esa Orolning tiklanishiga, baliqchilikni

qaytarilishiga olib keldi. O'zbekiston hududidagi Janubiy Orolning tiklanishiga esa umid deyarli yo'q. Ammo hududda yashillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa yerning qotishiga, shamol bo'lganda ham tuzlarni havoga ko'tarilishini oldini oladi. Xulosa qilib aytganda ekologiyani asrash, nafaqat tabiatga balki insonlarning hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Osiyoning tabiatini asrashda esa Orol eng katta muhofaza qilinishi kerak bo'lgan hudud hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Turaeva, G. G. (2023). OROL DENGIZI QURISHINING O 'RTA OSIYO MAMLAKATLARIGA TA'SIRI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(30), 105-109.
2. Berg L. S, Aralskoye more, SPB,1908; Shuls V. L., Mashrapov R., O'rta Osiyo gidrografiya, T., 1969; Rafikov A. A., Tetyu yan G. F., Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirodnykh usloviy nizov'nykh Amudari, T., 1981; Glazovskiy A. F., Aralskiy krizis, M., 1990; Akramov Z., Rafikov A. A., Proshloye, nastoyashee i budushee Aralskogo morya, T., 1990; Xikmatov B. F., Izucheniye dinamiki elementov vodnogo balansa i mineralizatsii Aralskogomorya, Dissertatsiya na soiskaniye akademicheskoy stepeni magistra gidrologii, T., 2003.